

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

«RANGTASVIRDA KOMPOZISIYANING AHAMIYATI»

Mirzayeva Feruza Xoldarovna

Andijon viloyati Marhamat tumani.

22-IDUM tasviriy san'at o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada tasviriy san'at asarlarini ishslash kampozitsion jihatdan firlash bo'lib, tasviriy san'atni kampozitsiyasiz tasavvur etib bo'lmasligi, badiy asar yaratishda barcha bosqichlarini bir-biri bilan chambarchas bog_liqligi, ular orasidagi ketmasetlik, Ba'zan ikki yoki uch jarayon uchun bir vaqtning o_zida ish olib borilishii mumkinligi. Ijodiy jarayonning uzun-qisqaligi, kartinaning g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirilishi, umuman asarnig qanday dunyoga kelishi va bu albatta bo'lg'usi rassom o'qituvchi uchun katta ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, ijod, rassom, yechim, joylashtirish, tasavvur, asar, qoralama, eskiz, bo'lajak o'qituvchi, badiy, syujet, etyut

Abstract the: In the article, the work of fine art is a compositional twist, it is impossible to imagine fine art without composition, all the stages of creating a work of art are closely linked, the sequence between them, Sometimes two or that work can be done simultaneously for three processes. The brevity of the creative process, the integration of the picture into an integral whole that expresses the ideological and artisti content, how the work is born in general, and, of course, the importance of this for the future artist-teacher. goes

Keywords: composition, creation, artist, solution, placement, imagination, work, draft, sketch, future teacher, art, plot.

Qadimdan kompozitsiya asar g'oyasi bilan uzviy bog'lik xolda tushunib kelingan va ijodkor tasvirlamoqchi bo'lgan g'oya aynan, tasvir, voqeа va shaxslarni umumiylikka g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir.. Kompozitsiyani faqatgina qalam, mo'yqalam yoki bo'yoqlar vositasida yaratibgina qolmay, balki noan'anaviy |ashyolarni biriktirish yo'llari bilan ham kompozitsiya tuzish mumkin. Rassom,kompozitsiya yaratishda tabiat qurshovidagi shakl va ranglardan jonli va jonsiz tabiat ashyolaridan o'z kompozitsiyasini yaratishda foydalanishi mumkin.

Kompazitsiya ustida ish boshlash arafasida polotno yuzasini to'g'ri tashkil etish muammosi paydo bo'ladi. Insonning ko'rish a'zolari va tafakkuri fazoviy mushohada etishga moslangan. Masalan, polotno yuzasiga o'tkazilgan to'g'ri chiziq gorizontal bo'lsa, pasti - yer, tepasi - osmon g'oyasini, vertikal chiziq - tomonlar g'oyasini beradi. Kompozitsiyani tadqiq qilishdan maqsad, asarning tashqi tuzilishini aniqlaydigan badiylilik asoslarini topishi, undagi badiy materialni taqsimlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat.² (V. Jirmunskiy. adabiyot nazariyasidan olim) ko'plab teran fikrli

² Абдуллаев. С.А.. Рангтасвир асарида композиция муаммолари. услубий қўлланма. Тошкент-1994

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

rassomlar asar yaratishda o'zlarining rejissyor sifatidagi xususiyatlarini topganlar va ular xuddiki sahna maydoni kabi matoda (холстда) ish olib boradilar.

Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lism bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.

Xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalg etish kata tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi.

Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Rang orqali natyurmort ishslash tasviriy san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug'-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi. Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. O'quvchilar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va harakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishslashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishslash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi. Akvarel bilan ishslashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishslash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishslash monoxrom yoki grizayl metodida ishslash deb ataladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'rildi.
2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingen bo'lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.
4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.
5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim. Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldinqo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim axamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo ohangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin. Akvarel bilan ishlatsida bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak. Tabaiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishga yordam bergen. belgilovchi falsafiy mushohadani o'stirish, unga rioya etish va amalda qo'llay bilish juda katta yordam beradi.

Kompozitsiyani qurishda kompozitsion markaz va qismlarning muvofiqligi, yorug'lik, shakl o'lchamlari, va asarning ikkinchi darajali qismlarini bo'ysundirish, syujet ustida ishlash, tasvirdagi shaxslarning ichki kechinmalari, bir-biriga bo'gan

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

munosabatlari, holatlari, harakatlari, ma‘nodorlik, ohangdorlikni qo’llash kompozitsion ko’rinishining asosiy qismlari bo’lib, kompozitsiyani maqsadli bajarilishiga xizmat qiladi. Bunday kompozitsiyada jismlar miqdori, vazni, perspektiva, ufq chizig’i, tasvirga ko’zning qarash nuqtasi, suratdagi bo’yoq ranglarning bir-biriga mos kelishi, jismlarning perspektiv qisqarishi, yorug_ soyaning taqsimlanishi, holati va boshqalar shular jumlasidandir.

Adabiyot nazariyasidan olim V.M.Jirmunskiy. aytganidek Kompozitsiyani tadqiq qilishdan maqsad, asarning tashqi tuzilishini aniqlaydigan badiylik asoslarini topish, undagi badiy materialni taqsimlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Каланов.А.Ж Графика композицияси. ўқув қулланма (бакалавр йуналиши 1-боскич дастури асосида) Тошкент «info capital group» 2018
2. Egamov.A. Kompozitsiya asoslari 5-9 sinflar. —San‘at』 jurnali nashriyoti. Toshkent –2005
3. Абдуллаев.С.А.. Рангтасвир асарида композиция муаммолари. услубий кўлланма. Тошкент-1994
4. XAITOV.E.X. KOMPOZITSIYA fanidan O_quv qo_llanma. Cho_lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019
5. Baxriyev I.S. (2021). PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. Экономика и социум, 9(88), 33-35.
6. Baxriyev I.S. (2021). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. Экономика и социум, 9(88), 28-32.